

# NAVOIY VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



# Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**Tibbiyot muassasalari tarmog'iga** shifoxona va ambulatoriya-poliklinika, tez tibbiy yordam, onalik va bolalik himoyasini ta'minlash hamda sanitariya-epidemiologiya yo'nalishidagi va boshqa muassasalar kiradi.

**Shifoxona muassasi** – kechayu kunduz tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va reabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

**Ambulatoriya-poliklinika muassasalari** soniga aholining ushbu muassasalarga qatnab yoki shifokorlarning uylarga tashrif buyurishi orqali aholiga davolash profilaktika yordamini ko'rsatuvchi muassasalar kiritiladi. Ular qatoriga mustaqil poliklinikalar, dispanserlar, shifoxonalarning poliklinika bo'limlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiy sanitariya qismlar, ambulatoriyalar, qishloq (shahar) vrachlik punktlari, mustaqil vrachlik tibbiyot punktlari, ayollar maslahat xonalari va boshqalar kiradi.

**Aholining kasallanishi** yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktik ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispanser kuzatuv ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.

**Birlamchi kasallanish** bemorga hayotida birinchi marotaba tashxisi aniqlanganda ro'yxatga olinadi.

**Kasallanish darajasi** - birinchi marotaba tashxisi aniqlangan bemorlar sonini doimiy aholining o'rtacha yillik soniga nisbati.


**Bemorlar kontingenti** – joriy hamda o'tgan yillarda tibbiyot muassasalariga murojaat etgan va kasallikga chalingan barcha shaxslar kiradi. Mazkur ko'rsatkich yil oxirida sog'liqni saqlash muassasalari hisobida turgan bemorlarni yil oxiridagi doimiy aholi soniga bo'linishi orqali hisoblanadi.

**Tibbiyot xodimlarining** soniga barcha ixtisoslik va turdagi tibbiyot muassasalarining (tibbiy yordam ko'rsatuvchi xususiy muassasalarni qo'shgan holda) shifokorlari va o'rta tibbiy xodimlari kiritiladi.


**Shifokorlarning** umumiy soniga sog'liqni saqlash muassasalarida, sanatoriy-kurort muassasalarida, tibbiyot xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarida, ilmiy tadqiqot institutlarida, sog'liqni saqlashning boshqaruv organi apparatida ishlayotgan oliy tibbiy ma'lumotga ega barcha mutaxassislar kiradi.

**O'rta tibbiyot xodimlarining** umumiy soniga sog'liqni saqlash, sanatoriy-kurort muassasalarida, bolalar uylarida va boshqa muassasalarda ishlayotgan o'rta maxsus tibbiy ma'lumotga ega barcha shaxslar kiritiladi.

**Navoiy viloyatida shifoxona muassalari soni**  
*(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)*




2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, Navoiy viloyatida 40 ta shifoxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, Jami shifoxonalar soni 2017- yilga nisbatan 37,9 % ga (11 taga) oshdi.




**Navoiy viloyatida shifoxona muassalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi**


*(2021- yil oxiriga, birlik)*



Navoiy viloyati bo'yicha kichik korxonalar va  
mikrofimalardagi shifoxona muassasalari soni  
(*tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik*)



Navoiy viloyati kichik korxonalar va  
mikrofimalaridagi shifoxona muassasalarining  
shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi  
(*2021- yil oxiriga, birlik*)



2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Navoiy viloyatida 40 ta shifoxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 25,0 % (10 tasi) xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlar hisoblanadi. Jami xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlar 2017- yilga nisbatan 3,3 barobarga (7 taga) oshdi.




Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan  
ambulatoriya-poliklinikalar soni  
(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)



2021- yil yakuniga ko'ra, Navoiy viloyatida 321 ta ambulatoriya-poliklinikalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 52,3 % (168 tasi) mulkchilik shakli bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar hisoblanadi. Ambulatoriya poliklinikalari soni bir yil mobaynida 5,2 % ga (16 taga) ko'paydi.

Faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinikalarning shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi  
(2021- yil oxiriga, birlik)




Jami ambulatoriya-poliklinikalar

ulardan kichik korxonalar  
va mikrofirmalar

Shahar va tumanlar bo'yicha shifoxona muassasalarida  
davolangan bemorlar soni

(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, ming kishi)




**Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni**  
(*tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi*)




Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni 2017- yilda 2726 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilga kelib ushbu ko'rsatkich 3043 nafarga yetib, o'sish sur'ati 11,1 % tashkil etdi.


**Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlarning shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi**  
(*2021- yil oxiriga, kishi*)



Navoiy viloyati bo'yicha kichik korxonalar  
va mikrofirmalarda faoliyat yuritayotgan vrachlar soni  
(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)



Navoiy viloyatida kichik korxonalar va mikrofirmalarda faoliyat yuritayotgan vrachlar soni 2021- yil oxirida 315 nafarni tashkil etib, 2017- yilga nisbatan 97 nafarga ko'paygan.





Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning  
gender bo'yicha taqsimlanishi

(2021-yil yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)

Ayollar

Erkaklar



598

Navoiy sh.

770

161

Zarafshon sh.

139

3

G'ozg'on sh.

3

109

Karmana t.

157

42

Konimex t.

43

134

Qiziltepa t.

159

77

Navbahor t.

84

39

Nurota t.

87

5

Tomdi t.

12

65

Uchquduq t.


76

68

Xatirchi t.

212


Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning gender  
bo'yicha taqsimlanishi,  
(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, ming kishi)




Navoiy viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni  
(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, ming kishi)



O'rta tibbiyot xodimlarining gender bo'yicha taqsimlanishi  
(2021- yil yanvar-dekabr oylari uchun, foizda)




Navoiy viloyati shifoxona  
muassasalarining bemor o'rinlari soni  
(2021- yil oxirida, birlik)



4390

Shifoxonalarda  
bemor uchun o'rinlar  
soni, birlik




209

Kichik korxonalar va  
mikrofimalardagi  
bemor uchun o'rinlar  
soni, birlik



42

10 000 aholiga nisbatan  
bemor o'rinlari soni



Press-relizni tayyorlash uchun ma`sul  
Navoiy viloyati statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistikasi bo`limi



Navoiy viloyati  
statistika boshqarmasi



Manzil: Navoiy sh.,  
Amir Temur ko`chasi, 4- uy



Тел.: +99879 223-54-98



e-mail: [nv@navstat.uz](mailto:nv@navstat.uz)



[www.navstat.uz](http://www.navstat.uz)



[facebook.com/navstatistika](https://facebook.com/navstatistika)